

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**RAQAMLI IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA IQTISODIY O‘SISHGA
TA’SIRI**

Usmanova N.Yu.

Buxoro muxandislik- texnologiya instituti, katta o‘qituvchi,

Xakimova R.

718-20 MNT guruhi talabasi, Buxoro sh.

noza_future@mail.ru

**ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ**

Усманова Н.Ю.

*Бухарский инженерно-технологический институт,
старший преподаватель;*

Хакимова Р.

Студент группы МНТ 718-20, Бухарское ш. noza_future@mail.ru

**THE ESSENCE OF THE DIGITAL ECONOMY AND IMPACT ON ECONOMIC
GROWTH**

Usmanova N.Yu.

Bukhara Engineering and Technology Institute, senior teacher;

Khakimova R.

Student of the group 718-20 MNT, Bukhara, noza_future@mail.ru

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar doirasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida O'zbekistonda so'nggi yillarda qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan [1]. Raqamli iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri yalpi uning ichki mahsulotidagi ulushi bilan belgilanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi AQSHda 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizini tashkil etadi. "Vouchercloud" portali

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tadqiqotchilari dunyodagi “eng aqlli” 25 davlat ro‘yxatini e‘lon qildi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, birinchi o‘rinni Yaponiya egallagan. Kunchiqar yurt tadqiqotning asosiy ko‘rsatkichlari — Nobel mukofoti laureatlari soni, aholining o‘rtacha IQ (aql-zakovat) darajasi, maktablardagi o‘zlashtirish ko‘rsatkich bo‘yicha ham eng yuqori bahoga sazovor bo‘ldi. Keyingi o‘rinlardan Shveysariya, Xitoy, AQSH va Niderlandiya joy oldi. Xitoy aholi aql-zakovat darajasi yuqori bo‘lgani uchun uchinchi o‘rinni olgan bo‘lsa, AQSHga to‘rtinchi o‘rinda joylashishiga Nobel mukofoti laureatlari soni yordam berdi. Janubiy Koreya, Tayvan va Singapur bilimli yoshlar soni bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda, ammo faqatgina Nobel mukofoti laureatlari soni kamligi sababli reytingda yuqorida joylasha olmadi. “McKinsey” ekspertlarining baholashi bo‘yicha, bugungi kunda jahon YAIMning qariyb 10 foizi raqamli aktivlarga to‘g‘ri keladi, shu bilan birga, ularni ishlab chiqish sur‘ati jahon iqtisodiy o‘sishining 30 foiziga teng.

Raqamli aktivlarning rivojlanishi akselerator harakatiga o‘xshaydi. So‘nggi yillar davomida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ko‘pgina chora-tadbirlar dunyo miqyosida amalga oshirilmoqda. Bu orqali mamlakatlar yashash farovonligini yaxshilashni maqsad qilishgan. [2] Xususan, O‘zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar salmoqli ahamiyatga ega. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni 73 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qonuniy asos qilib olingan.

Raqamli iqtisodiyotning mamlakat uchun asosiy afzallik va imkoniyatlari:

1. Yashirin iqtisodiyotni yo‘q qilishda yordam beradi: Kelishuvlar raqamli tizim orqali amalga oshirilsa, ularni osongina kuzatib borish mumkin. Istalgan mijoz tomonidan amalga oshirilgan har qanday to‘lov qayd etiladi. Shu tarzda, noqonuniy bitimlarni amalga oshirish uchun hech qanday vosita bo‘lmaydi. Naqd pul operatsiyalarini cheklash va faqat raqamli tizimga solingan to‘lovlardan foydalanish orqali mamlakat yashirin iqtisodiyotni samarali ravishda siqib chiqarishi mumkin.

2. Daromadlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi: Bu raqamli iqtisodiyotning eng aniq va keng tarqalgan afzalliklaridan biridir. Tranzaksiyalar raqamlashtirilganda, savdo va soliq to‘lovlarini kuzatish qulay bo‘ladi. Har bir tranzaksiya qayd etilganligi sababli, xaridorlar xarid uchun hisob varag‘ini oladilar va sotuvchilar sotishdan soliq to‘lovini hukumatga to‘lashlariga to‘g‘ri keladi. Bu, o‘z navbatida, davlat daromadlarini ko‘paytiradi va natijada mamlakatning moliyaviy ahvoli o‘sishiga olib keladi.

3. Insonlarga imkoniyat beradi: Raqamli iqtisodiyotga o‘tishning eng katta afzalliklaridan biri bu fuqarolarga imkoniyat yaratishidir. To‘lovlar raqamli holga kelganda, har bir kishi bank hisob raqamiga mobil qurilmalari orqali bog‘lanadi. Bu esa, hukumat subsidiyalarini insonlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri bank hisob raqamlariga o‘tkazish jarayonini osonlashtiradi.

4. Elektron boshqaruvga yo‘l ochadi: an‘anaviy boshqaruvga alternativ bo‘lgan tez, xavfsiz va samarali elektron boshqaruv raqamli iqtisodiyotning yakuniy natijasi hisoblanadi.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Raqamli iqtisodiyot barcha davlat xizmatlari elektron ko‘rinishda amalga oshiriladigan elektron boshqaruvga yo‘l ochadi. [4]. Yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi: Raqamli iqtisodiyot yangi bozorlarda ish o‘rinlarini ko‘paytirish, shuningdek hukumatdagi mavjud kasblarning ayrimlarida bandlikni oshirish uchun juda ko‘p imkoniyatlarga ega. Shu tarzda, mamlakatda ishsizlik darajasi pasayishiga ijobiy ta‘sir etadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. [5]. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o‘ssishini misol qilib keltirish mumkin. “Elektron hukumat”, “elektron boshqaruv”, “telekommunikatsiya”, “internet”, “veb-sayt” kabi yuzlab iboralar hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-4022, 21.11.2018 y. www.lex.uz Yana bir muhim jihat — mamlakatimizda aholi eng ko‘p to‘qnash kelayotgan sohalarni raqamlashtirish, odamlarning og‘irini engil qilishga ustuvorlik qaratilyapti. Jumladan, sog‘liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim yo‘nalishlarini raqamlashtirish bo‘yicha amaliy jarayonlar boshlandi va tez orada o‘zining ijobiy samaralarini beradi. [6] Raqamli iqtisodiyot jamiyatda muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, xususan, uning mehnat sharoitlariga ta‘siri sezilarli bo‘ladi. Raqamli transformatsiya sharoitida avtomatlashtirish jarayonlarining kuchayishi, sun‘iy intellekt, ulkan ma‘lumotlar bilan ishlaydigan analitik tizimlar, robotlardan foydalanish ko‘lamining ortishi mehnat resurslari uchun o‘rinbosar bo‘lib xizmat qiladi. Natijada biznes yuritish sharoitlari takomillashib va samaradorlik sezilarli darajada ortadi. [7]. Yuqorida ta‘kidlangandek raqamli iqtisodiyot juda ko‘p afzallik va imkoniyatlarga ega. Bu to‘lovlarning narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi. Onlayn xizmat ko‘rsatish xarajatlari an‘anaviy iqtisodiyotga qaraganda ancha past va xizmatlarning o‘zlari ham ijtimoiy ham tijorat jihatidan ancha arzonroqdir. Taklif etilayotgan mahsulot iste‘molchining yangi istaklari yoki ehtiyojlarini qondirish uchun darhol o‘zgartirilishi mumkin. Raqamli iqtisod har xil axborot, ta‘lim, ilmiy sohadagi yangiliklarni tez, sifatli va qulay tarzda taqdim etadi. Shuningdek, xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirishni lozim deb hisoblaymiz. Raqobabardoshlikning pastligi.

Mamlakatimizda internet provayderlari ham, dasturiy ta‘minot kompaniyalari ham sanoqli. Ularning taqdim etayotgan xizmatlari va ularning narxlari ham bir-biriga juda yaqin. Foydalanuvchilar soni ko‘p bo‘lmagandan keyin taklif etuvchilarning ham mahsulotlari xilma-xil bo‘lmaydi. [8]. Raqamli iqtisodiy tizimni rivojlantirish uchun raqobatni kuchaytirish lozim. Buning uchun raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini davlat tomonidan tashkiliy, moliyaviy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash lozim. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqa mamlakatlar kabi, O‘zbekiston uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Shuni ham tan olish kerakki, O‘zbekistonga bugungi kunda maqbul keladigan

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tadbir qisqa davrda – birinchi navbatda, texnologik ortda qolishdan qutulishdir. Hozirda esa mamlakatimizda zarur miqdordagi to‘laqonli iqtisodiyot sub’ektlari yo‘qligi tufayli yetuk va to‘laqonli raqamli iqtisodiyotni o‘z-o‘zidan shakllantirish uchun shart-sharoitlar yo‘q. Bu esa davlatimizga raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini uchun shart-sharoitlar yaratish, uni eng kerakli sohalarga yo‘naltirish va bu jarayonni imkoniyat darajasida rag‘batlantirish zarurligi demakdir. Milliy iqtisodiyotimizning yana bir muhim ajralib turadigan jihati shundaki, YAIM asosiy qismi davlat korporatsiyalari (yoki davlat ishtiroki ulushi katta bo‘lgan kompaniyalar) tomonidan yaratiladi. Ishlab chiqarishning ko‘plab tarmoqlarida 75 davlat ishtirokidagi o‘yinchilar bozorning 80%gacha bo‘lgan qismini tashkil qilishi mumkin. Bunday sharoitlarda profilli vazirliklar yoki davlat korporatsiyalari rahbarligi ostida industrial raqamli platformalar yaratish eng oqilona qadam bo‘lib hisoblanadi. Bunday platformalar raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi va unga mos keluvchi texnologiyalarning keng tarqalishi uchun zarur infratuzilma bazisini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADADBIYOTLAR:

1. Головенчук Г. “Цифровая экономика”. Минск 2020 г. Ст.36
2. Jumanova S. Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari yo‘l.//YAngi O‘zbekiston, 2020 yil 28 yanvar, 2-soni Raxmonov N.M. - Bank-moliya akademiyasi,d
3. Gulyamov.S.S. va boshqalar. «Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari.» // “Iqtisod Moliya” nashriyoti, 2019. 396 b.
4. Usmanova Nasiba Yunusovna. (2021). Classification Characteristics Of Financial Investments, Factors And Methods Of Influence On Investment Activity. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(2), 90-94. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/77>
5. Usmanova Nasiba. (2022). Innovative Economic Development of Uzbekistan: Trends and Prospects. The Peerian Journal, 5, 175–179. Retrieved from <https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/123>
6. Nasiba U. Innovative Economic Development of Uzbekistan: Trends and Prospects //The Peerian Journal. – 2022. – T. 5. – C. 175-179.
7. Usmanova N. Y. DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2020. – С. 163-166.
8. Usmanova N. Y. WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – С. 101-105.